

## **QALQONSIMON BEZ O'ZGARISHI NATIJASIDA KELIB CHIQADIGAN KASALLIKLAR**

**Sharipbayeva Yulduz Muzafarovna**

**Saxaddinova O'lmasoy Muxiddinovna**

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

Email: [saxadinovaolmasoy@gmail.com](mailto:saxadinovaolmasoy@gmail.com)

**Annotatsiya:** Endokrinologiya kasalligi qalqonsimon bez bo'lib, uning garmonal ishi buzilsa soch to'kilishi, tirnoq sinishi, semizlik, ozib ketish, stress, bepushtlik, xotiraning susayishi, ko'z soqqasining kengayishi kuzatiladi. Endokrinologiya kasalligi yuzaga kelmasligi uchun hozirda respublika bo'yicha 102 ta yodlangan osh tuzini ishlab chiqarish va qadoqlash korxona, sexlar faoliyati yo'lga qo'yilgan. Hududlarda endokrinologiya dispanserlarini zarur reaktivlar bilan taminlash yo'li endokrinologik kasalliklarning zamonaviy diagnostika usuli ishlab chiqildi.

**Kalit sozlar:** Endokrinologiya, Buqoq kasallik, simtom, yod tanqisligi, bez, garmon, organizm.

### **Diseases caused by change of the thyroig gland**

**Abstract:** Thyroid disease is an endocrinological disease, and if its hormonal function is disturbed, hair loss, nail breakage, obesity, weight loss stress, infertility, memory loss, and eyelid enlargement are observed. In order to prevent endocrinological diseases, 102 production and packaging enterprises and workshops of iodized table salt are established across the country. A modern diagnostic method of endocrinological diseases was developed by supplying endocrinology dispensaries with necessary reagents in the regions.

**Key words:** Endocrinology, goiter disease, symptom, iodine deficiency, gland, hormone, organism.

Qalqonsimon bez — odam va hayvonlarning ichki sekretsiya bezi. Qalqonsimon bezning rivojlanishi homilalik davrida boshlanib, bola 1 yoshga yetganda uning vazni 1—2 g ni tashkil etadi, o'sish jarayonida u kattalashib 15—20 g gacha yetadi. Qalqonsimon bez embrion jabra xaltachasi epiteliysidan rivojlanadi. Qalqonsimon bez odam embrioni taraqqiyotining 8—9 oyida to'liq shakllanib, gormon ajrata boshlaydi, u bo'yinda, hiqildoq tog'aylari sohasida joylashgan; 2 palla va bo'yinchadan iborat. Qalqonsimon bezni bir juft yuqori va bir juft pastki arteriyalar qon bilan ta'minlaydi, simpatik va parasimpatik nerv tolalari innervatsiya qiladi. U organizmda modda va energiya almashinushi regulatsiyasida ishtirok etuvchi yodli gormon tiroksin, triyodtironin va tireokaltsitonin ishlab chiqaradi. Endikrinologik kasalik deganda hozirgi kunda insoniyat ongida Buqoq kasalligi ko'z oldimizga keladi.

Buqoq kasalligi bu -yod tanqisligi bo'lib bezning kattalashishi kuzatiladi. Yod tanqisligi e'sa, insonning turmush tarzidagi stressda ekologik o'zgarishlar kabi bir qancha narsalar sababdir. Yod yetishmovchiligi natijasida xotira susayishi, soch to'kilishi, past bo'ylik, tirnoqlar sinishi, ba'zi turlarda e'sa ozib ketish kabi holatlar yuz beradi. Garmonlarning sintezining buzilishi kuzatiladi. Yuqoridagi simtomlar sababli yurak urishi tezlashib yoki sekinlashib, qon bosimi odatdagidan o'zgarishi yuz beradi. Yana asosiy belgilardan biri nafas qisilishi va puls tezlashishiga olib keladi. Bunday kasalliklarning oldini olish uchun O'zbekistonda ham, aholi o'rtasida ko'plab profilaktika ishlari olib borilyapdi. Respublikamizning shu kungacha turli xududlardagi ratsionida yod tanqisligi kuzatilib kelinmoqda. Bu borada yurtimizda endokrinologiya xizmatini takomillashtirish va kengaytirish chora tadbirlari to'g'risida 102-sonli PQ qarori asosida dasturlar ishlab chiqilgan. Bu qarorga ko'ra O'zbekiston Respublikasi aholisiga endokrinologiya yordamini ko'rsatish bo'yicha milliy dastur doirasida diagnostika va davolashning yangi standartlari tasdiqlandi.

75 mingga yaqin bemorlariga davlat butjeti asosida 100% insulin bilan bepul taminlanildi. Yana endokrinolog professori Y.X. To'raqulovning tatqiqotiga ko'ra olamshumul ko'rsatgich aniqlangan. Bunda fuqorolar tomonidan kunlik o'ratcha yod

iste'moli sezilarli darajada kamaygan bo'lib, bor yog'i 32-64 mkgni tashkil etadi. Bu degani minimal miqdorda 150-200 mkgni tashkil etadi.

Endokrinologik kasalliklar bo'yicha butun jahon SSTni ma'lumotiga ko'ra Buqoqning sporadic kasalliklari 5% ga kamayishiga erishilsa, yod tanqislik kasalliklarini bartaraf etiladi. Hozirgi kunda esa yod tanqisligi holati 31% ni tashkil etib, 2020- yilda esa 2.5 barobardan ortiq kamaygan. 202-yilga kelib esa 2% ni tashkil etadi. Bu borada faqatgina tadqiqotchilar emas balki bir guruh tibbiyot xodimlari ham kurashmoqda. Misol tariqasida Toshkent viloyati Oqqo'rg'on tumani aholisi o'rtasidagi "D" ro'yhatidagi endokrinologik kasalliklar 1500 dan, 2021-yili esa bir qancha kasalliklarni sog'lomlashtirib ular soni 1017 taga yetgan. Zero kasallikni davolashdan ko'ra, uni oldini olish onson va unga qarshi chora ko'rish avfzaldir. Shunday ekan yurtdoshlarimizdan endokrinologik ko'rikdan o'tib turishini so'rab qolamiz. Zero har bir hoh qiz hoh o'g'il bo'lishidan qatiy nazar sog'lom avlod o'z salomatligi haqida qayg'urishi kerak.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. A.Axmedov G.Ziyomudinova Anatomiya, Fiziologiya va Patobiya.
2. R.E.Xudoyberdiyev, N.K.Axmedov, R.A.Alaviy, S.A.Asamov Odam anatomiysi
3. A.Qodirov. Odam anatomiysi.